

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

Konstitutsiya – inson huquqlari kafolati

Ravshanov Davron Shavkat o‘g‘li*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti**Xalqaro huquq fakulteti birinchi bosqich talabasi**Elektron pochta: mrravshanov111@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson huquqlarini ta’minalashdagi rolini, fuqarolarning shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlarini amalga oshirilishini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, rivojlangan demokratik davlatlarning konstitutsiyalari bilan inson huquqlari kafolati yuzasidan tahlil o‘tkaziladi va xalqaro umume’tirof etilgan hujjatlarning konstitutsiyalarda qay tariqa namoyon bo‘layotganligi, shuningdek, o‘rta asrlarda inson huquqlarining ta’milanish darajasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, Inson huquqlari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, o‘rta asrlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль Конституции Республики Узбекистан в обеспечении прав человека, а также реализация личных, социально-экономических и политических прав граждан. Кроме того, проводится анализ гарантий прав человека в конституциях развитых демократических государств и рассматривается, как международно признанные документы отражаются в конституциях.

Ключевые слова: Конституция, права человека, Всеобщая декларация прав человека, Средние века.

Annotation: This article examines the role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in ensuring human rights, as well as the implementation of citizens' personal, socio-economic, and political rights. Additionally, an analysis is conducted on the guarantees of human rights in the constitutions of developed democratic states, and how internationally recognized documents are reflected in constitutions is discussed.

Keywords: Constitution, Human Rights, Universal Declaration of Human Rights, Middle Ages.

KIRISH. Hozirgi kunga kelib inson huquqlarining kafolati qay darajada? XX asrning o‘rtalariga kelib inson huquqlarining kafolati dolzarb masalaga aylandi. Inson huquqlarini ta’minalash uchun xalqaro tashkilotlar bir qator muhim konvensiyalar va shartnomalar qabul qildilar. Tashkilotga a’zo bo‘lgan davlatlar ham bu hujjatlarni kodifikatsiya qilishni boshladilar va ularning ijrosini ta’minalash uchun bir qancha qonunlar qabul qildilar yoki oliy qonuni bo‘lmish konstitutsiyaga inson huquqlarini kafolatlovchi normalarni qo‘shdilar. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ham mustaqillikdan so‘ng bir qator xalqaro tashkilotlarga qo‘sildi, boshqa davlatlar e’tirof



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

etgan xalqaro hujjatlarni qabul qildi. Xususan, ulardan biri Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bo‘lib, unda belgilangan qoidalarni o‘z konstitutsiyasida ham aks ettirdi, ularda belgilangan normalarni amalga joriy etish uchun bir qator qonunchilik hujjatlarini qabul qildi.

XXI asrga kelib har bir davlat o‘zining qonunlarida inson huquqlarini aks ettirmoqda. Masalan, Fransiya o‘z konstitutsiyasida 1789-yilda qabul qilingan “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi”da belgilangan qoidalariqa sodiqligi e’lon qilgan. Unda shaxs, so‘z, vijdon erkinligi, fuqarolarning qonun oldida tengligi, zulmga qarshilik ko‘rsatish huquqi, xususiy mulk daxlsizligini asosiy huquqlar sifatida e’tirof etgan. Uning qabul qilinishida fransuz faylasuflarining fikrlari muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, Jan Jak Russo, Sharl Lui Monteskiyo, Volter kabi faylasuflarning mulohazalari bu hujjatda aks etgan. Bundan tashqari, Ikkinchi jahon urushi yakunlangandan so‘ng tuzilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” inson huquqlarini himoya qilish uchun qabul qilingan eng muhim xalqaro hujjat bo‘ldi. Bu deklaratsiya inson huquqlarini himoya qilish uchun qo‘yilgan ilk qadam bo‘ldi. Bu hujjatdan so‘ng Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt (1966-yil), “Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt (1966-yil), “Qiynoqlarga qarshi konvensiya” (1984-yil), “Ayollarni kamsitishga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiya (1979-yil), “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya (1989-yil) va Yevropa Kengashi tomonidan “Yevropa inson huquqlari” konvensiyasi (1950-yil) qabul qilindi. Bu xalqaro hujjatlar inson huquqlarini himoya qilishga yordam bermoqda va bugungi kunga kelib juda ko‘plab davlatlar bu hujjatlarni qabul qilgan va ularda belgilangan qoidalarni amalga oshirish uchun milliy qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqqan. Masalan, Norvegiya, Shvetsiya, Germaniya, Finlandiya, Niderlandiya, Kanada, Yangi Zelandiya, Shveysariya, Islandiya kabi mamlakatlar dunyoda inson huquqlarini ta’minlashda yetakchi davlatlar hisoblanadi. Bu davlatlarda yashovchi odamlarning so‘z erkinligi ta’minlangan, ijtimoiy tenglik yuqorida, ayollar va bolalar huquqlari himoya qilinadi va migrantlarga ham munosabat yaxshi. E’tiborli jihat shundaki, yuqorida sanab o‘tilgan davlatlar xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilishda, ularni amalga tatbiq etishda ilg‘ordir. O‘zbekiston Respublikasini ham yaqin kelajakda mana shu davlatlar qatorida ko‘rishimiz mumkin. Hozirda O‘zbekiston Respublikasi ham bir qancha xalqaro shartnomalarga qo‘shilgan, konvensiyalarni qabul qilgan. Ularni amalda bajarish uchun harakat qilmoqda. Masalan, “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyani qabul qilingandan so‘ng, unda qoidalarni bajarish uchun O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildi, bundan tashqari 2001-yil “Onalar va bolalar” yili, 2008-yil “Yoshlar” yili, 2014-yil “Sog‘lom bola” yili, 2016-yil “Sog‘lom ona va bola” yili deb e’lon qilindi. Yillarning bunday nomlanishi amalga oshirilayotgan islohotlarning katta qismi mana shularga qaratilgan bo‘ladi. Ko‘rib turganingizdek birgina hujjatning ijrosini amalga oshirish uchun uzoq yillardan buyon islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Shubhasiz bu islohotlarning amalga oshirilishida konstitutsiyaning o‘rnini beqiyosdir. Konstitutsiyaning katta qismi inson huquqlarining kafolatiga bag‘ishlangan. Ya’ni II bo‘limda inson huquqlari belgilangan, shuningdek, XIV bob ham (Oila, bolalar va yoshlar) inson huquqlarini, bolalar manfaatlarini himoya qiluvchi normalar berilgan va bu normalar asosida kodekslar va qonunlar qabul qilingan (masalan, Fuqarolik kodeksi). Yuqorida keltirilgan asoslарimizдан шу ма’лумки, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi respublika hududida yashayotgan har bir odamning huquqlarini ta’minlaydigan eng muhim hujjatdir.

Xo‘s, rivojlangan demokratik davlatlarning konstitutsiyalarida va bizning konstitutsiyamizda inson huquqlariga oid qanday farqli jihatlar bor?

Keling, bu savolga javob berish uchun AQSh, Germaniya va Fransiya konstitutsiyalari bilan taqqoslab, tahlil qilamiz. AQSh konstitutsiyasiga “Huquqlar to‘g‘risidagi Bill” (Bill of Rights) kiritilgan va inson erkinliklarini himoya qiladi. Germaniya konstitutsiyasining 1-moddasida “Inson sha’ni daxlsizdir. Uni hurmat qilish va himoya qilish — davlatning burchi.” deb belgilangan. Fransiya konstitutsiyasida esa keltirilgan “Inson va fuqaro huquqlari to‘g‘risida”gi deklaratsiya asosida “Inson huquqlari muqaddas va daxlsizdir” deb ta’kidlanadi. Bizning konstitutsiyamizdagи 13-moddada esa “Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.” deb keltirilgan va bu Germaniya asosiy qonunida belgilangan norma bilan deyarli bir xil. AQSh konstitutsiyasining 1-tuzatishida esa “Kongress dinni davlat dini sifatida o‘rnatish yoki uning erkin ravishda amalga oshirilishini taqiqlovchi, so‘z erkinligi yoki matbuot erkinligini cheklovchi, shuningdek, odamlarning tinch yig‘ilish o‘tkazish va hukumatdan shikoyat qilish huquqini cheklovchi hech qanday qonun qabul qilmaydi.” deb belgilab qo‘yan. Germaniya asosiy qonunining 5-moddasida esa “Har kim erkin fikr bildirish huquqiga ega.” ekanligi belgilangan. Fransianing konstitutsiyasida matbuot erkinligi muqaddas huquq deb e’tirof etilgan. Bosh qomusimizda ham “Har kim so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega” ekanligi mustahkamlanadi. AQShda sud hokimiyyati ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyatdan mutlaqo ajratilgan. Germaniyada fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish huquqiga ega. Fransianing Konstitutsiyaviy kengashiga murojaat qilish esa murakkabroq. O‘zbekistonda esa Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish imkon yo‘q va u sudlovchi emas. AQShda ta’lim to‘g‘risida norma berilmagan, ammo shtatlar konstitutsiyalarida bunday normativ hujjatlar mavjud. Germaniya, Fransiya va O‘zbekistonda ta’lim bepul, majburiy va davlat tomonidan kafolatlanadi. Shuningdek, yuqorida keltirilgan mamlakatlarning barchasida insonlarning huquqlari jinsi, irqi, millati, tili, dini e’tiqodidan qat’iy nazar teng ekanligi belgilangan. Agar inson huquqlari himoyasiga doir fikr va mulohazalarga e’tibor bersak, XX asrning eng kuchli siyosatchilari Uinston Cherchil: “Inson huquqlari erkinlik va demokratianing eng mustahkam poydevoridir”, Jon Kennedi: “Har bir insonning erkinligi, tengligi va huquqlari uchun kurashish, butun dunyo bo‘ylab tinchlik va barqarorlikni saqlashning

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

asosidir" va Nobel mukofoti sovrindori, afroamerikalik prezident Barak Obama: "Inson huquqlarini himoya qilish har bir insonning majburiyati bo'lishi kerak, chunki inson huquqlari barcha insonlarga tegishli" deganlar. Yuqorida keltirilgan fikrlardan ma'lumki, inson huquqlari kafolati o'tgan asrda ham, hozirda ham murakkab va dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda.

O'rta asrlarda inson huquqlari himoyasi qanday bo'lgan? Yoki ularning huquqlari ta'minlanganmi?

Barchamizga ma'lumki, o'rta asrlarda dunyoda qudratli imperiyalar, sultanatlар va qirolliklar hukm surgan. Bu davrda feodalizm, din (ayniqsa xristian dini) kuchli hukmronlikka ega bo'lgan. O'rta asrlarda odamlar o'rtasida tabaqalanish shu darajada kuchli edi. Jamiyat yuqori, o'rta va quyi tabaqa vakillariga bo'lingan. Quyi tabaqa vakillari hisoblangan dehqonlar va qullar deyarli hech qanday huquqlarga ega bo'lmagan, shuningdek, ko'p hollarda hattoki ularning hayoti ham ahamiyatga ega bo'lmagan. Qullar xo'jayinlari tomonidan ayovsiz jazolangan. Xo'jayinlar esa ko'ngil xushligi uchun, kayfiyatini ko'tarish yoki kayfiyati yaxshi bo'lmagan hollarda qullarni o'ldirib yuborishgan. Bu vaqtida quyi tabaqa vakillariga inson emas, balki oddiy buyum sifatida qaralgan. O'rta tabaqa vakillari hisoblangan jangchilar, savdogarlar, hunarmandlar va shahar aholisida huquqlari cheklangan edi. Lekin quyi tabaqa vakillariga qaraganda ularning hayoti yaxshi va bir qancha huquqlarga ega edi. Masalan, ular mol-mulkka ega bo'lishi mumkin bo'lgan, xizmatkor yoki qullarga egalik qilishi mumkin edi. Quyi tabaqa faqatgina vazifalarni bajargan, ammo o'rta tabaqa majburiylardan tashqari cheklangan huquqlarga ega edi. Yuqori tabaqa – bu qirollar, zodagonlar, din rahbarlaridan iborat. Ular o'rta asrlarda juda keng vakolatlarga ega edi. Ayniqsa, monarxlar va Rim Papasi cheklanmagan vakolatlarga ega edi. Ular o'rta va quyi tabaqa vakillarini jazolagan, ularning taqdirini hal qilgan. Ularning xohish-istiklari qonun bo'lgan, chiqargan farmonlari esa oliy kuchga ega bo'lgan. Zodagonlar esa odatda shahar hokimlari, gersoglar, graf, baron, lordlar va juda katta boylikka ega bo'lgan boylardir. Ular ham ko'p huquqlarga ega bo'lgan, ammo bu huquqlar oliy hukmdorlar (monarx va Rim Papasi) tomonidan taqdim etilgan. Ularga sodiqlik, qo'llab-quvvatlash va bo'ysunish tufayli bunday huquqlarni olishgan. Bu holatlar asosan Yevropada yuz bergen. Sharqda vaziyat turlicha bo'lgan. Masalan, ba'zi davrlarda sultanatlarda aholi huquqlari himoyasi juda yuqori bo'lgan, hattoki hozirgi eng demokratik davlatlardan ham yaxshiroq inson huquqlari himoya qilinib, adolatli hukmlar chiqarilgan. Ba'zi davrlarda esa Yevropa kabi bo'lgan. Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida inson huquqlari yuqori darajada bo'lgan. Jamiyat va siyosat asosan shariat qonun-qoidalari va "Temur tuzuklari" asosida tartibga solingan. Fuqarolar ko'plab huquqlarga ega bo'lgan. Ular tijorat, dehqonchilik, chorvachilik va boshqa kasblarda faoliyat yuritgan. Ayniqsa, Amir Temur hukmronligi davrida san'at, madaniyat, savdo va me'morchilik yuksalgan. Bunga sabab esa Amir Temur tomonidan adolatli soliqlar o'rnatilishi, fuqarolar huquqlarining ta'minlanishi va jinoyatchilarga og'ir jazolar berilishi deb aytishimiz mumkin.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

“Inson huquqlari va erkinliklari – har bir davlatning bosh maqsadi va har bir insonning asosiy huquqi.” — Islom Karimov

“Inson huquqlarini hurmat qilish, davlatning o‘z xalqiga bo‘lgan mas’uliyatini anglash va uning manfaatlarini himoya qilish, har bir hukumatning eng asosiy vazifasi bo‘lishi kerak.” — Shavkat Mirziyoyev. Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rib turibmizki, davlatimiz rahbarlari ham doimo inson huquqlarini himoya qilishga harakat qilishgan va hozir ham shunday bo‘lib qolmoqda. Biz konstitutsiyada belgilangan inson huquqlarini ta’minlashimiz uchun o‘sib kelayotgan yosh avlodga hozirdanoq o‘zlarining huquqlarini va burchclarini tushuntirib borishimiz kerak. Ularning qalbida konstitutsiyaga nisbatan hurmat va ehtirom tuyg‘usini shakllantira olsak, yoshlар kelajakda boshqa insonlarning huquqlarini buzmaydi va o‘zining ham huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (lex.uz)
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (constitution.uz)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT 72-sessiyasidagi nutqi (president.uz)
4. Fransiya “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi” (conseil-constitutionnel.fr)
5. Germaniya Konstitutsiyasi (bmi.bund.de)
6. AQSH Konstitutsiyasi va “Bill of Rights” (senate.gov va billofrightsinstitute.org)
7. Temur tuzuklari

